



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MULOQOT
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

Qo'qon universiteti

Psixologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Komilova Shahnozaxon Sultonali qizi

e.mail: komilovashahnoza633@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish muammosi nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan. Bitiruv malakaviy ishi jarayonida muloqot tushunchasining psixologik-pedagogik mohiyati, maktabgacha yosh davrida muloqot rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari hamda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metod va usullar tahlil qilingan.

Tadqiqotda metodika orqali tajriba-sinov so'rovnomalar o'tkazish ishlari olib borilib, 3-4 yoshli bolalar o'rtasida bolalarning muloqot madaniyati, ijtimoiy normalarni bilishi, hamda muloqot kirisha olish qobiliyati darajalarini baholashga yo'naltirilgan.

Tadqiqotdan olingan natijalar matematik-statistik tahlil asosida umumlashtirilib, taklif etilgan metodlarning samaradorligi isbotlangan. Bitiruv malakaviy ishi natijalari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, pedagoglar va psixologlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

ABSTRACT

The issue of developing communication skills in preschool children has been investigated from both theoretical and practical perspectives. In the course of this qualification thesis, the psychological and pedagogical essence of the concept of communication, the specific characteristics of communication development in the preschool age period, and effective methods and techniques serving to develop communication skills have been analyzed. In the research, experimental testing and



questionnaire surveys were conducted through a specific methodology, aimed at assessing the levels of communication culture, knowledge of social norms, and the ability to engage in communication among 3-4-year-old children.

The results obtained from the research were summarized based on mathematical-statistical analysis, and the effectiveness of the proposed methods was proven. Based on the findings of the qualification thesis, practical recommendations have been developed for preschool educators, pedagogues, and psychologists.

АННОТАЦИЯ

Проблема формирования коммуникативных навыков у детей дошкольного возраста исследована с теоретической и практической точек зрения. В процессе выполнения выпускной квалификационной работы проанализированы психолого-педагогическая сущность понятия «общение», специфические особенности развития общения в дошкольном возрасте, а также эффективные методы и приемы, служащие формированию коммуникативных навыков. В ходе исследования с использованием специальной методики была проведена опытно-экспериментальная работа и анкетирование, направленные на оценку уровня коммуникативной культуры, знания социальных норм и способности к вступлению в общение у детей 3–4 лет.

Результаты, полученные в ходе исследования, были обобщены на основе математико-статистического анализа, что доказало эффективность предложенных методов. На основе результатов выпускной квалификационной работы разработаны практические рекомендации для воспитателей дошкольных образовательных организаций, педагогов и психологов.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamoloti va ijtimoiy moslashuv jarayonida muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi.

Ushbu davrda bolalarda muloqot ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligi keyingi ta'lim bosqichlarida qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish muammosi dolzarb pedagogik va psixologik masala hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning nutqi, ijtimoiy faolligi, atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlari va muloqot madaniyati shakllanadi. Muloqot ko'nikmalari bolaning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishi, jamoaga moslashuvi va shaxsiy rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi¹

Shuningdek, "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining ishlab chiqilishi va 2022-yil 4-fevralda uning takomillashtirilgan nashrining chop etilishi, 2020-yilda esa 6–7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashga mo'ljallangan "Ilm yo'li" variativ dasturining joriy etilishi hamda boshqa innovatsion dasturlarning yaratilishi maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga samarali tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratdi².

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin faoliyati nafaqat qiziqarli mashg'ulot, balki ularning ijtimoiy, emotsional va aqliy rivojlanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, oila muhitining ham bu jarayondagi o'rni beqiyosdir. Ota-onalar va yaqinlar bilan doimiy muloqotda bo'lish bolaning nutq boyligini oshiradi, so'zlashuv madaniyatini shakllantiradi va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Aksincha,

¹ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2018.

² O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – T., 2020.



muloqot yetishmovchiligi bolaning nutq rivojida ortda qolishiga, tortinchoqlik va ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi kunda dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi, jamoa bilan samarali munosabat o‘rnatishi va o‘z fikrini erkin ifoda eta olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bolalarda nutq rivojining sustligi, tortinchoqlik, o‘z fikrini bayon qila olmaslik kabi muammolar kuzatiladi. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni faol suhbatga jalb etish va ijtimoiy muhitga moslashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masala bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bolalarning nutqiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishida muloqotning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda muloqot jarayoni bola rivojlanishining asosiy omili sifatida qaraladi. Xususan, Lev Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida bola psixik taraqqiyotining asosiy manbai ijtimoiy muhit va muloqot ekanligi ta’kidlanadi. Uning fikricha, nutq avval tashqi ijtimoiy faoliyat sifatida shakllanib, keyinchalik ichki psixik jarayonga aylanadi³.

Jan Piaje esa bolalar tafakkurining rivojlanish bosqichlarini o‘rganib, maktabgacha yosh davrida muloqot ko‘nikmalari egotsentrik nutqdan ijtimoiy nutqqa

³ Piaget J. *The Psychology of Intelligence*. – New York, 1960.



o'tish jarayonida shakllanishini asoslab bergan. Bu jarayon bola tafakkuri va nutqining rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi.

Aleksey Leontevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, muloqot inson faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, u amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Bu yondashuv bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda faoliyatga asoslangan ta'limning muhimligini ko'rsatadi.

Mahalliy pedagog va psixolog olimlar ham maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq va muloqotni rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlarida tarbiyachi va ota-onaning roli, o'yin faoliyatining ahamiyati hamda nutqni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarning samaradorligi keng yoritilgan.

Amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri o'yin faoliyati hisoblanadi. Aleksey Leontevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, bola psixikasi va nutqi aynan faol faoliyat jarayonida shakllanadi. O'yin davomida bola turli rollarni bajaradi, dialogga kirishadi, o'z fikrini ifoda etadi hamda boshqalarni tinglashni o'rganadi. Bu esa muloqot ko'nikmalarining tabiiy va izchil rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar va sahnalashtirilgan mashg'ulotlar bolalarda nutq faolligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, "do'kon", "shifokor", "oila" kabi rolli o'yinlar orqali bolalar real hayotiy vaziyatlarni modellashtiradi va muloqotga kirishish tajribasini kengaytiradi. Bu jarayon ularning so'z boyligini oshiradi hamda muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beradi⁴. Amaliy jarayonda ertak va hikoyalar bilan ishlash ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarga ertak o'qib berish, uni qayta hikoya qilishga undash va savol-javoblar orqali tahlil qilish ularning nutqiy faolligini

⁴ Elkonin D.B. *Psychology of Play*. – Moscow, 1978.

kuchaytiradi. Shu bilan birga, bu usullar bolalarning eslab qolish va fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Tarbiyachining faoliyati ham amaliy jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarbiyachi bolalar bilan doimiy muloqotda bo'lishi, ularni to'g'ri va ravon nutqqa yo'naltirishi hamda har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Ijobiy emotsional muhit yaratish esa bolalarda erkin fikr bildirishga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

XULOSA

O'tkazilgan so'rovnoma va maxsus metodikalar yordamida 3–4 yoshli bolalarning muloqotga kirishish qobiliyati, ijtimoiy normalarni anglashi va nutqiy madaniyati darajasi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tizimli ravishda qo'llanilgan syujetli-rolli o'yinlar, ertak terapiyasi va jamoaviy faoliyat turlari bolalarning muloqot faolligini sezilarli darajada oshirganligi matematik-statistik tahlillar orqali o'z isbotini topdi. Bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish faqatgina maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan cheklanib qolmasdan, oilaviy muhit bilan ham uzviy bog'liqdir. Tarbiyachi va ota-onalarning nutq madaniyati, bolaning hissiyotlarini tan olishi va u bilan teng huquqli muloqot olib borishi jarayon samaradorligini ikki barobar oshiradi. Umuman olganda, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar, o'yin texnologiyalari va metodik ishlanmalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari, tarbiyachilar hamda amaliyotchi psixologlar uchun bolalar bilan olib boriladigan kundalik ta'lim-tarbiya jarayonida muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2018.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – T., 2020.
- 3.Piaget J. *The Psychology of Intelligence*. – New York, 1960.
- 4.Elkonin D.B. *Psychology of Play*. – Moscow, 1978.